



**Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich
Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi talabalariga 3-semestr uchun « Dasturlash tillari yordamida
matematik masalalarini yechish » fanidan yakuniy nazorat savollari**

Imtihon shakli: Amaliy

| Savolning tartib raqami | Savolning qiyinlik darajasi | Savolning qanday mashg‘ulotga tegishliligi | Mavzu nomeri | Savol matni |
|--------------------------------|------------------------------------|---------------------------------------------------|---------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | 1 | A | 13 | C++ dasturlash tilida kiritgan ikki sonning qiymatlarini bir-biriga almashinadigan dastur tuzing. |
| 2. | 2 | A | 6 | Kiritgan kvadrat tenglama $ax^2 + bx + c = 0$ ning ildizlarini aniqlovchi dastur yozing (diskriminant usuli bilan). Kvadrat tenglamaning koeffisiyentlari foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 3. | 1 | A | 11 | Foydalanuvchi kiritgan 8 ta son ichidan eng kichigini aniqlovchi dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 4. | 1 | A | 7 | Kiritgan 10 ta son ichidan eng kattasini kvadratini uchlanganini aniqlash uchun C++ dasturlash tilida dastur tuzing. |
| 5. | 2 | A | 6 | Teng tomonli uchburchakning tomoni berilgan. Berilgan tomon uzunligiga ko‘ra uning piremetrini va yuzasini hisoblash algoritmini va dasturini tuzing. |
| 6. | 2 | A | 15 | Rombning tomoni va balandligi berilgan bo‘lsa uning piremetrini va yuzasini hisoblash dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |

| | | | | |
|-----|---|---|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 7. | 2 | A | 6 | 1 dan 201 gacha bo‘lgan sonlar ichidan 3 ga ham 7 ga ham bo‘linadiganlarini sonini aniqlovchi algoritm va dastur tuzing. |
| 8. | 2 | A | 6 | 1 dan 2006 gacha bo‘lgan sonlar ichidan 5 ga ham 8 ga ham bo‘linadiganlarini sonini aniqlovchi algoritm va dastur tuzing. |
| 9. | 2 | A | 6 | 1 dan 2006 gacha bo‘lgan sonlar ichidan 5 ga ham 8 ga ham bo‘linadiganlarini sonlarning yig‘indisini hisoblash algoritm va dastur tuzing. |
| 10. | 3 | A | 8 | Foydalanuvchi kiritgan N natural sonining faktorialini hisoblaydigan dastur yozing. ($N!=N\times(N-1)\times\cdots\times1$, $N<20$). |
| 11. | 3 | A | 8 | N ta elementli Fibonachchi ketma-ketligini topadigan dastur yozing (N foydalanuvchi tomonidan kiritiladi). |
| 12. | 2 | A | 5 | Uch xonali natural son berilgan. Ushbu sonning oxirgi raqamini boshiga o‘tkazish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 13. | 3 | A | 6 | OX va OY koordinata o‘qlarida yotmaydigan nuqta berilgan. Nuqta joylashgan koordinata choragi aniqlansin. |
| 14. | 1 | A | 2 | Bir kg konfetning narxi berilgan (haqiqiy son). 1, 2, ..., 10 kg konfetning narxini aniqlovchi programma tuzilsin. |
| 15. | 1 | A | 1 | Bir kg konfetning narxi berilgan (haqiqiy son). 0.1, 0.2, ..., 1 kg konfetning narxini aniqlovchi programma tuzilsin. Takrorlanuvchi jarayonlarni nazariy izohlang. |
| 16. | 2 | A | 1 | N butun son berilgan. ($N>0$). Quyidagi yig‘indini hisoblovchi algoritm tuzilsin. $S=1+1/2+1/3+\dots+1/N$. |
| 17. | 2 | A | 1 | N butun son berilgan. ($N>0$). Quyidagi yig‘indini hisoblovchi algoritm tuzilsin. $S=1^2+2^2+3^2+\dots+n^2$ |
| 18. | 2 | A | 2 | Uch xonali natural son berilgan. Ushbu sonning raqamlari yig‘indisini topish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. Takrorlanuvchi jarayonlarni nazariy izohlang. |
| 19. | 2 | A | 1 | Markazi (x_1, y_1) nuqtada bo‘lgan R radiusli aylana bilan (x_0, y_0) |

| | | | | |
|-----|---|---|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| | | | | koordinatali nuqtaning o‘zaro joylashish holatini aniqlovchi dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 20. | 3 | A | 2 | $Y=x^2+x+41$ formulani $0 \leq x \leq 41$ qiymatlarda Y ning qiymatlarini hisoblash dasturini tuzing. Takrorlanuvchi jarayonlarni nazariy izohlang. |
| 21. | 3 | A | 2 | m, n sonlar berilgan. Jumlani rostlikka tekshirish dasturini tuzing: „Koordinatalari (m,n) bo‘lgan nuqta, koordinata choragining to‘rtinchisida yotadi“. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlashni nazariy izohlang. |
| 22. | 3 | A | 2 | Ikkita butun son berilgan D (kun) va M (oy). (Kabisa bo‘lmagan yil sanasi kiritiladi). Berilgan sanadan keyingi sanani ifodalovchi C++ dasturlash tilida programma tuzilsin. |
| 23. | 2 | A | 2 | Sonli yozuvida bir xil raqamlari bo‘lmagan barcha uch xonali sonlarni o‘sish tartibida chop qilish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 24. | 2 | A | 2 | m va n natural sonlar berilgan. $1^n + 2^n + \dots + m^n = ?$ ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini Flowgorithm dan foydalab tuzing. |
| 25. | 2 | A | 3 | Yozuvida bir xil raqamlar bo‘lmagan barcha to‘rt xonali sonlarni ekranga chiqarish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 26. | 2 | A | 1 | n ta butun sonlar ketma-ketligini kriting. Hamma musbat sonlar yig‘indisini topish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 27. | 2 | A | 5 | Natural soni berilgan. Uning ikkita maksimal raqamini aniqlash algoritmi va dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 28. | 2 | A | 1 | Natural son berilgan (Raqamlari ikkitadan kam bo‘lmagan). Uning maksimal va minimal raqamlarining yig‘indisi a soniga karrali bo‘lishini aniqlash dasturini tuzing. |
| 29. | 2 | A | 1 | a dan b gacha bo‘lgan barcha butun sonlardan k ga teng bo‘linuvchisi bo‘lgan sonlarni toping. Agar bu sonlar mavjud bo‘lmasa, u holda mos xabarlar chop qilish dasturini tuzing. |
| 30. | 2 | A | 6 | N butun soni berilgan ($n > 1$). N sonidan katta bo‘lgan birinchi Fibonachchi sonini aniqlovchi dastur tuzilsin. |
| 31. | 1 | A | 1 | Konusning balandligi va asosining radiusi berilgan bo‘lsa uning hajmini hisoblash dasturini tuzing. |

| | | | | |
|-----|---|---|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 32. | 1 | A | 1 | Konusning balandligi va asosining radiusi berilgan bo'lsa uning yon sirtini hisoblash dasturini tuzing. |
| 33. | 1 | A | 1 | Konusning balandligi va asosining radiusi berilgan bo'lsa uning to'la sirtini hisoblash dasturini tuzing. |
| 34. | 2 | A | 6 | $y=16x^2+2x+6$ funksiyaning qiymatini [-2..11] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 35. | 2 | A | 6 | $y=9+2x^2+2x$ funksiyaning qiymatini [-1..20] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 36. | 2 | A | 6 | $y=16+x^2-8x$ funksiyaning qiymatini [-5..20] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 37. | 2 | A | 6 | Piramidaning hajmi va balandligi berilgan. Uning asosining yuzini topish algoritmdan foydalanib tuzing. |
| 38. | 2 | A | 6 | Agar y , $y=6x^2+1,5t-2$, $t=x+2.5$ formula bilan berilgan bo'lsa, x ning 4, 5, ..., 28 qiymatlari uchun y ning qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 39. | 3 | A | 3 | Uchburchakning uch xil holati berilgan. 1-holat: uchta tomon. 2-holat: ikkita tomon va ular orasidagi burchak. 3-holat: asos va balandlik. Foydalanuvchi kiritgan holatga qarab uchburchak yuzini topish dasturini C++ dasturlash tilida tuzing. |
| 40. | 3 | A | 1 | Ikkita butun son berilgan. Shu sonlarning kichigini tartib raqamini aniqlash uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. |
| 41. | 2 | A | 1 | Ikkita butun son berilgan. Shu sonlarning kattasini tartib raqamini aniqlash uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. |
| 42. | 2 | A | 1 | 10 dan 211 gacha barcha toq sonlar yig'indisini hisoblash dasturini C++ dastrulash tilida tuzing. |
| 43. | 1 | A | 1 | 1 dan 160 gacha bo'lgan oraliqda 2 ga va 7 ga bo'linadigan sonlarni yig'indisini hisoblash dasturini tuzing. |
| 44. | 2 | A | 2 | Natural a soni berilgan. a sonining tub bo'luvchilari sonini topish dasturini tuzing. |

| | | | | |
|-----|---|---|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 45. | 2 | A | 2 | Natural a soni berilgan. a sonining tub bo‘luvchilari yig‘indisini topish dasturini tuzing. |
| 46. | 2 | A | 1 | Natural a soni berilgan. a sonining tub ko‘paytuvchilarga ajratish dasturini tuzing. |
| 47. | 2 | A | 1 | To‘g‘ri burchakli uchburchakning ikkita burchagi α va β hamda gipotenuza c berilgan. Shu uchburchakning katetlarini topish algoritmi va dasturini tuzing. |
| 48. | 3 | A | 6 | Doiraning yuzasi S_1 berilgan. Shu doira ichki chizilgan uchburchakning yuzasi S_2 ga teng. Shu uchburchakka ichki chizilgan doiraning yuzasini topish algoritmi va dasturini tuzing. |
| 49. | 2 | A | 1 | Teng tomonli to‘g‘ri burchakli uchburchakning yuzasi S berilgan. uning gipotenuzasini topish algoritmi va dasturini tuzing. |
| 50. | 2 | A | 1 | Teng tomonli trapetsiyaning yon tomonlari c ga va balandligi h ga teng. yuzasi esa S bilan ifodalanadi. Uning tomonlari topish algoritmi va dasturini tuzing. |
| 51. | 2 | A | 6 | Ushbu $\sum_{i=1}^n (a + b)^{\frac{1}{i}}$ yig‘indini hisoblovchi dastur tuzilsin. |
| 52. | 1 | A | 1 | Kvadratning tomoni a teng. Uning piremetri va yuzini aniqlovchi dastur tuzing. |
| 53. | 1 | A | 1 | To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari a va b ga teng bo‘lsa uning piremetri va yuzini aniqlovchi programma tuzing. |
| 54. | 3 | A | 6 | Aylananing diametri d ga teng. Uning uzunligi aniqlash uchun C++ dasturlash tilida dasturini tuzing. $L = \pi d$ |
| 55. | 2 | A | 2 | Ikkita a va b sonlari berilgan. Ularning o‘rta arifmetigini hisoblash uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. $l = \frac{a + b}{2}$ |
| 56. | 2 | A | 2 | Ikkita a va b natural sonlar berilgan. Ularning o‘rta geometrigini hisoblash uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. \sqrt{ab} |
| 57. | 3 | A | 2 | Doiraning yuzi S berilgan. Uning diametri va uzunligi topish uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. $L = 2\pi R$, $S = \pi R^2$ |

| | | | | |
|-----|---|---|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 58. | 2 | A | 7 | 1 dan 200 gacha bo‘lgan oraliqda 5 ga va 7 ga bo‘linadigan sonlarni yig‘indisini hisoblash dasturini tuzing. |
| 59. | 2 | A | 7 | 200 dan 405 gacha bo‘lgan oraliqda 6 ga va 7 ga bo‘linadigan sonlarni yig‘indisini hisoblash dasturini tuzing. |
| 60. | 3 | A | 7 | 1 dan 200 gacha bo‘lgan oraliqdajuft sonlar yig‘indisini hisoblash dasturini tuzing. |
| 61. | 2 | A | 6 | Silidrning asosining radiusi va balandligi berilgan bo‘lsa uning to‘la sirtini hisoblash dasturini tuzing. |
| 62. | 2 | A | 7 | A va B butun sonlari berilgan ($A < B$). A dan B gacha bo‘lgan barcha butun sonlar (A va B ham kiradi) yig‘indisini chiqaruvchi algoritm tuzilsin. |
| 63. | 2 | A | 7 | N ($N > 0$) butun son berilgan. Quyidagi ko‘paytmani hisoblovchi algoritm tuzilsin: $P = 1.1 * 1.2 * 1.3 * \dots (N \text{ ta ko‘paytuvchi})$. |
| 64. | 2 | A | 7 | A xaqiqiy va N ($N > 0$) butun sonlari berilgan. A ning N-darajasini aniqlovchi algoritm tuzilsin: $A^N = A * A * \dots * A$ |
| 65. | 2 | A | 7 | A va B butun sonlari berilgan ($A < B$). A va B sonlar orasidagi barcha butun sonlarni (A va B ni ham) chiqaruvchi va chiqarilgan sonlar sonini chiqaruvchi algoritm tuzilsin. (A va B ham chiqarilsin). |
| 66. | 2 | A | 6 | Bir va ikki xonali sonlar ichida o‘z kvadratining oxirgi raqamlariga teng bo‘lgan sonlarni aniqlash dasturini tuzing. |
| 67. | 2 | A | 6 | 1...999 oralig‘idagi sonlar berilgan. Berilgan sonni - ikki xonali juft son va uch xonali toq sonlarni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. |
| 68. | 2 | A | 10 | $M(x;y)$ nuqta koordinata tekisligining qayerida joylashganligini aniqlash dasturini tuzing. (x va y qiymatlari kiritiladi). |
| 69. | 2 | A | 10 | $y = kx + b$ funksiya grafigining qaysi koordinata choragida joylashganlini aniqlash uchun C++ dasturlash tilida dastur tuzing. |
| 70. | 2 | A | 10 | Ixtiyoriy kiritilgan ko‘p xonali sonning 2, 3, 4, 5, 6, 10 sonlaridan qaysi biriga karrali ekanligini aniqlash algoritm va dasturini tuzing. |

| | | | | |
|-----|---|---|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 71. | 3 | A | 6 | $y = \frac{\sqrt{e^x + e^{\frac{1}{x}} + 9.99}}{\frac{3}{4}x^3}$ hisoblash dasturini tuzing. x ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 72. | 2 | A | 6 | $y = \frac{1+x^4}{\sin x + x }$ hisoblash dasturini tuzing. x ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 73. | 2 | A | 6 | Quyidagi ifodani dasturlash tilida yozing va hisoblang : $y = \frac{ax^2}{ x } - \left \frac{x-t}{\sqrt{x+a}} \right $, a,x,t ning qiymatlari foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 74. | 2 | A | 6 | Quyidagi ifodani dasturlash tilida yozing va hisoblang : $y = \frac{2}{ ax^2 } - \left \frac{x-t}{\sqrt{x+a}} \right $ a,x,t ning qiymatlari foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 75. | 2 | A | 6 | Quyidagi ifodani dasturlash tilida yozing va hisoblang : $y = \frac{\sqrt{x+a}}{ x + \sin x} - 1 + x^4$, a,x,t ning qiymatlari foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 76. | 2 | A | 6 | x va a ning berilgan qiymatlariga ko'ra $y = \frac{\sqrt{x+a}}{ x + \sin x} - 1 + x^4$ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 77. | 2 | A | 6 | x, b, c, t va a ning berilgan qiymatlariga ko'ra $y = \frac{2}{ ax^2 - bx + c } - \left \frac{x-t}{\sqrt{x+a}} \right $ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |

| | | | | |
|-----|---|---|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 78. | 2 | A | 6 | $x, t \text{ va } a$ ning berilgan qiymatlariga ko'ra $y = \frac{\sqrt{17+ax^2}}{ x } - \left \frac{x-t}{\sqrt{x+a}} \right $ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 79. | 2 | A | 6 | $x, t \text{ va } a$ ning berilgan qiymatlariga ko'ra $y = \frac{ax^2-x}{ x } - \left \frac{x-t}{\sqrt{x+a}} \right $ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 80. | 2 | A | 6 | $t \text{ va } a$ ning berilgan qiymatlariga ko'ra $y = \frac{at^2-t+1,5}{ t } - \left \frac{1}{\sqrt{t+a}} \right $ ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing. t va a ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 81. | 3 | A | 7 | $y=24+2*x^2$ funksiyaning qiymatini [5..25] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 82. | 3 | A | 7 | $y=x^2-8*x+3$ funksiyaning qiymatini [0..20] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 83. | 3 | A | 7 | $y=2/x+3$ funksiyaning qiymatini [0..22] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 84. | 3 | A | 7 | $y=-3/x^2$ funksiyaning qiymatini [10..100] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 85. | 3 | A | 7 | $y=-3x+19x^2+18$ funksiyaning qiymatini [15..45] oraliqda hisoblash dasturini tuzing. |
| 86. | 3 | A | 7 | $y = \frac{1}{x^2+16x} - 2$ funksiyaning [-1..1] oraliqda qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 87. | 3 | A | 7 | $y = 2^{x+3} - 6$ funksiyaning [-5..5] oraliqda qiymatini hisoblash dasturini tuzing. |
| 88. | 2 | A | 15 | a va b sonlarining EKUBini a soniga nisbatini ikkilangan qiymatini topish dasturini tuzing. |
| 89. | 2 | A | 15 | a va b sonlarining EKUKini b soniga nisbatini ikkilangan qiymatini topish dasturini tuzing. |

| | | | | |
|------|---|---|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 90. | 2 | A | 11 | Berilgan uchta sondan eng kattasini eng kichigiga nisbatini topish dasturini tuzing. |
| 91. | 1 | A | 11 | Berilgan beshta sondan eng kattasini kubini hisoblash dasturini tuzing. |
| 92. | 1 | A | 13 | Uchta a , c va b sonlari berilgan. Ularning o'rta arifmetigini hisoblash uchun C++ dasturlash tilida programma tuzing. |
| 93. | 1 | A | 15 | $y = \begin{cases} 2x + 5, & x > 0 \\ x, & x = 0 \\ -x + 9, & x < 0 \end{cases}$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing. x ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 94. | 1 | A | 15 | $y = \begin{cases} 2a, & a > 0 \\ -a + 6, & a = 0 \\ a^2 + 9a + 3, & a < 0 \end{cases}$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing. a ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 95. | 1 | A | 15 | $y = \begin{cases} \frac{2x+3}{4} + \sqrt{x}, & x > 0 \\ \sqrt{x+16}, & x \leq 0 \end{cases}$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing. x ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 96. | 1 | A | 15 | $y = \begin{cases} \sqrt{x}, & x > 0 \\ -x^2 + 3x, & x \leq 0 \end{cases}$ funksiyaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing. x ning qiymati foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 97. | 1 | A | 13 | $ax = b$ chiziqli tenglamani yechish uchun C++ dasturlash tilida dastur tuzing. a va b o'zgaruvchilar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. |
| 98. | 2 | A | 13 | Teng yonli trapetsiyaning asoslari a va b , balandligi h berilgan. Trapetsiya yuzini va piremetrini hisoblash dasturini tuzing. |
| 99. | 2 | A | 13 | Uchburchakning ikki katet uzunligi berilgan, gipotenuza uzunligi berilgan, ikkinchi katet uzunligini hisoblash dasturini tuzing. |
| 100. | 2 | A | 13 | Uchburchakning bitta katet va gipotenuza uzunligi berilgan, ikkinchi katet uzunligini hisoblash dasturini tuzing. |

